ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK:158 Э 94
ORCID: 0009-0008-0378-3027

ESHMURADOV OLMOSBEK ELAMANOVICH
TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E-mail: eshmuradovolmosbek@gmail.com
MIRZAYEVA SARVINOZ XASAN QIZI
TerDPI Psixologiya mutaxassisligi magistranti.
E-mail: Sarvinozmirzayeva341@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA XULQ-ATVOR BUZILISHIGA OLIB KELUVCHI SABABLAR

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xulq-atvoridagi buzilishning ijtimoiy va psixologik sabablarini ochib berishga qaratilgan. Maqolada xulq-atvor buzilishining asosiy omillari yani oilaviy muhit ta'lim tizimi shaxsiy qarashlar va ijtimoiy muhit shaxsiy psixologik xususiyatlar tahlil qilinadi. bolalarning psixologik va emotsional rivojlanishi, ularning qo'rquv va xavotirlik holatlari, shuningdek, ushbu holatlarning shakllanish sabablari va ta'sirlari haqida chuqur tahlil qilinadi. Bolalar ko'pincha yangi ijtimoiy muhitda moslashishda turli xil qiyinchiliklarga duch keladi va psixologik to'siqlar orqali xulq-atvorida muammolar yuzaga kela boshlaydi bu jarayonda bola maktabda o'quv faoliyatida o'zlashtirishi qiyinlashib boradi va atrofdagi o'quvchilar bilan kam muloqot o'rnata boshlaydi.

KALIT SO'ZLAR: *kichik maktab yoshi, xulq-atvor, bolalar psixologiyasi, maktab muhiti, psixologik yondashuv, ijtimoiy muhit, ijtimoiy moslashuv, psixologik sabablar.*

ПРИЧИНЫ ПОВЕДЕНЧЕСКИХ РАССТРОЙСТВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

АННОТАЦИЯ: Цель данной статьи - выявить социально-психологические причины поведенческих расстройств у детей младшего школьного возраста. В статье анализируются основные факторы поведенческих расстройств, а именно семейная среда, система образования, личностные взгляды и социальная среда, личностные психологические особенности. Проводится углубленный анализ психологического и эмоционального развития детей, их состояний страха и тревоги, а также причин и последствий формирования этих состояний. Дети часто сталкиваются с различными трудностями в адаптации к новой социальной среде, и через психологические барьеры в этом процессе начинают возникать поведенческие проблемы, ребенку становится сложнее осваивать учебную деятельность в школе и начинает устанавливать меньше контактов с окружающими его учениками.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *Начальная школа, поведение, детская психология, школьная среда, психологический подход, социальная среда, социальная адаптация, психологические причины.*

CAUSES OF BEHAVIOR DISORDERS IN ELEMENTARY STUDENTS

ABSTRACT: This article aims to reveal the social and psychological causes of behavioral disorders in primary school children. The article analyzes the main factors of behavioral disorders, namely the family environment, the educational system, personal views and social environment, personal psychological characteristics. An in-depth analysis of the psychological and emotional development of children, their states of fear and anxiety, as well as the causes and effects of the formation of these states is provided. Children often face various difficulties in adapting to a new social environment and, through psychological barriers, behavioral problems begin to arise in this process, it becomes more difficult for the child to master academic activities at school and begins to establish less communication with students around him.

KEYWORDS: *primary school age, behavior, child psychology, school environment, psychological approach, social environment, social adaptation, psychological causes.*

KIRISH. Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar maktab hayotida shaxsiy va psixologik rivojlanishning muhim bosqichini tashkil etadi. Ushbu davrda ular nafaqat jismonan, balki hissiy jihatdan ham sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechiradilar. Shu bois, ularning psixologik xususiyatlarini tushunish va hisobga olish maktabdagi ta'lim jarayonida katta ahamiyatga ega.

Bu yoshdagi bolalar mustaqillik ko'nikmalarini rivojlantirishni boshlaydilar. Ular topshiriqlarni bajarishda va maktab ishlarida yanada o'z-o'ziga tayangan holda harakat qilishadi. Shu bilan birga, o'zini nazorat qilish va rejalashtirish qobiliyatlari oshadi. Shuning uchun bolalarga o'zlarini qulay va ishonchli his qilishlariga imkon beradigan, ularning qobiliyatlariga mos tarzda o'rganish va rivojlanish imkoniyatini taqdim etadigan muhit yaratish muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida xulq-atvor buzilishining psixologik va pedagogik sabablari so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Kichik maktab yoshidagi bolalarda qo'rquv va xavotirlanish muammosi psixologiya va pedagogika fanlarida uzoq yillardan buyon dolzarb tadqiqot obyektlaridan biri bo'lib kelmoqda. Bolalarning emotsional rivojlanishi, o'quv faoliyati samaradorligi va ijtimoiy moslashuvi o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, oilaviy muhit bolaning xulq-atvorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning ijtimoiy va emotsional rivojlanishida asosiy rolni o'ynaydi. A. Bandura (1977) ijtimoiy o'rganish nazariyasi asosida bolalar o'z atrofidagi kattalardan, ayniqsa ota-onadan xulq-atvor modellari orqali o'rganishini ta'kidlaydi. Agar bola oilada e'tibor yetishmovchiligi, ota-onaning doimiy qarama-qarshiligi yoki agressivlik namoyon etishiga duch kelsa, ularning xulqida buzilishlar yuzaga kelishi mumkin.

V. Vygotskiy (1978) bolaning rivojlanishi ijtimoiy va madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi. Ya'ni, maktab va jamiyatdagi muhit ham bolaning xulqini shakllantiradi. Oilaviy nizolar, ota-onaning ajralishi yoki bolaga haddan tashqari talab qo'yilishi xulq-atvorda salbiy o'zgarishlarga olib keladi.

H. Kounin (1970) o'quvchilarni boshqarish nazariyasida darsda tartib-intizomni saqlash uslublari bolalarning xulqiga bevosita ta'sir qilishini bildiradi. Agar o'qituvchi tarbiyaviy yondashuvni yetarlicha qo'llamasa yoki tartib-intizomni buzgan bolaga nisbatan inkor qiluvchi yondashuvni tanlasa, bola agressivlik va disfunktsional xulq namoyon qilishi mumkin.

A. Thomas va S. Chess (1977) tadqiqotlari maktabdagi pedagogik muhit va do'stona ijtimoiy munosabatlarning bolalarning xulqiga ijobiy yoki salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Bu nuqtai nazardan, dars jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim hisoblanadi.

So'nggi tadqiqotlarda bolalar xulq-atvoriga televizor, kompyuter o'yinlari va internetning salbiy ta'siri ham qayd etilgan. Gentile va kol. (2004) bolalarda zo'ravonlikka asoslangan media mahsulotlarini ko'rish agressivlikni oshirishini bildiradi. Bu esa xulqning buzilishida yangi ijtimoiy-madaniy omil sifatida ko'riladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Bolalarning ijtimoiy kompetensiyalari ularning kelajakdagi ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatlari uchun muhimdir. Guruh ichida hamkorlik qilish va boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish qobiliyatining shakllanishi bolaning psixologik barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Shu sababli, boshlang'ich sinf pedagoglari bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi tavsiya etiladi. O'qituvchilar va ota-onalar bolalarga bag'rikenglik, hissiy jihatdan aqllilik va nizolarni hal qila olishni o'rganishga yordam beradigan qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishlari kerak.

Bolalarning shaxsiy xususiyatlari va temperamentlari xulq-atvor buzilishida muhim rol o'ynaydi:

Temperament: Ba'zi bolalar tabiatan impul'siv, jahldor yoki hissiyotlarini nazorat qila olmasligi bilan ajralib turadi. Bu xatti-harakatlarning agressiv va konfliktli bo'lishiga sabab bo'ladi.

Impuls nazorati yetishmovchiligi: Neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, frontal lob faoliyatining yetarli darajada rivojlanmasligi bolalarda o'zini boshqarish qobiliyatini pasaytiradi.

Stress va xavotir: Maktab va uy sharoitida haddan tashqari bosim ostida qolish ham xulq buzilishiga sabab bo'ladi.

Boshlang'ich maktab davri bolaning tezkor kognitiv rivojlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu bosqichda bolalar muammolarni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini o'zlashtiradi, mantiqiy va mavhum fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ularning atrof-muhitga qiziqishi ortadi va ko'plab savollar berish orqali bilimga intilishadi. Shu sababli, o'qituvchilar bolarning kognitiv faolligini rag'batlantirish, tadqiqot va izlanish imkoniyatlarini yaratish, shuningdek, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga e'tibor qaratishlari lozim.

Boshlang'ich maktab o'quvchilarining psixologik xususiyatlari o'qituvchilar va ota-onalarning alohida e'tiborini talab qiladi. Bu xususiyatlarni chuqur tushunish va hisobga olish, bolalarning to'liq rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratadi, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Boshlang'ich maktab davri bolalarning ijtimoiy va akademik o'sishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular bu davrda o'qituvchilar va tengdoshlari bilan faol muloqot qiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonida ba'zi xulq-atvor muammolari yuzaga kelishi mumkin, bu esa samarali yechimlar va pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qiladi.Asosiy muammolarning tavsifi

1. Motivatsiya yetishmasligi. Ko'plab bolalar o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pastligi bilan duch keladi, bu esa

ularning o‘quv natijalari va o‘qishga bo‘lgan munosabatiga bevosita ta’sir qiladi. Motivatsiyaning yetishmasligi turli omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, jumladan, sinfdoshlar bilan muloqotdagi qiyinchiliklar, o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi muammolar yoki oilaviy sharoit bilan bog‘liq holatlar.

2. Agressiv xatti-harakatlar. Ba’zi bolalar tajovuzkor xatti-harakatlarni namoyon etadi, bu esa boshqa o‘quvchilarning o‘qishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Boshlang‘ich maktabdagi bunday tajovuz faqat akademik natijalarning pasayishiga emas, balki tengdoshlariga psixologik bosim tushishiga ham olib keladi.

3. Sinf xonasidagi noqulay mikroiqlim. Sinfdagi nizolar, ishonchsizlik va noto‘g‘ri muloqot tufayli o‘quvchilar noqulay mikroiqlimdan aziyat chekishi mumkin. Yomon sinf muhiti samarali o‘qishga to‘sqinlik qiladi va butun sinf bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi.. Sinf xonasidagi yomon muhit samarali o‘qishga to‘sqinlik qiladi va butun sinf bo‘yicha akademik ko‘rsatkichlarning pasayishiga olib keladi

Ota-onalar bilan muloqot qilish va har bir bolaning ehtiyojlarini baholash har bir o‘quvchini rag'batlantirishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqla.shga yordam beradi. O‘qituvchilar o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish va ta’limga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun turli pedagogik usullardan foydalanishlari mumkin. Shu jumladan:

Empatiya mashg‘ulotlari: Bolalarga boshqalar his-tuyg‘ularini tushunishga yordam beruvchi faoliyatlar. Bu mashg‘ulotlar bolalarda hissiy sezgirlikni oshiradi va tajovuzkor xatti-harakatlarni kamaytiradi.

Psixologik o‘yinlar: O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, ijobiy muloqot va jamoaviy ishlashga o‘rgatadigan o‘yinlar. Bunday o‘yinlar orqali bolalar salbiy vaziyatlarga konstruktiv javob berish usullarini o‘rganadilar.

Suhbat va muhokamalar: Pedagog va psixologlar bolalar bilan suhbatlar o‘tkazib, tajovuzkor xatti-harakatlarning muammolarni hal qilish usuli emasligini tushuntiradilar va muqobil yechimlarni birgalikda aniqlaydilar.

Bundan maqsad – bolaning hissiy farovonligini ta’minlash, ijobiy munosabat va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda tajovuzkor xatti-harakatlarni oldini olishdir.

3. Sinfda ijobiy muhit yaratish. Sinfdagi salbiy muhitni bartaraf etish barcha manfaatdor tomonlarning ishtirokini talab qiladi. O‘qituvchilar muloqot bo‘yicha treninglar o‘tkazishlari, o‘quvchilarning hamkorligini rag'batlantirishlari va konstruktiv nizolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari mumkin. Oilaviy muhit bola xulqining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

E’tiborsizlik yoki haddan tashqari qat’iy tarbiya bolaning xavotirli yoki agressiv xulqiga olib keladi.

Ota-onalararo nizolar yoki ajralishlar bolalarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligiga olib keladi, bu esa xulqiy buzilishlarni kuchaytiradi.

Oiladagi ijobiy model yetishmasligi – ya’ni ota-onaning sabr-toqatli, mehribon va tartibli xulqi bolaga namuna bo‘lmasa, bola nojo‘ya xatti-harakatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqolada deviant xulq-atvorni namoyon etuvchi bolalar bilan ishlashning maqbul formati muhokama qilinadi. Birinchidan, sinfda yoki guruhda ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimdir. Xulq-atvor muammolariga duch kelgan bolalar o‘ziga ishonchsiz bo‘lishi mumkin va o‘qituvchidan xavfsizlik va tushunish hissiga muhtoj bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Kichik maktab yoshida o‘quvchilarning xulq-atvori buzilishi bolaga ham psixologik ham pedagogik jihatdan o‘z tasirini ko‘rsatadi. Bu davrda bolalarga muhum psixologik jarayon hisoblanadi, shu sababli xulq-atvorda yuzaga kelgan muammolarni o‘z vahtida ahamiyat qaratishi lozim. Bu jarayonda pedagog va ota-onalarning hamkorligi talab etiladi.

Ba’zi hollarda oiladagi bolaga nisbatan etiborsizlik, zo‘ravonlik, ijtimoiy munosabatlarning nomutanosibligi o‘quvchilarda agressivlik xulqining namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Abramova G. S. Yosh psixologiyasi. - M.-Ekaterinburg, 2000 yil.*
2. *Ermolaev O. Yu., Maryutina T. M., Meshkova T. A. Maktab o‘quvchisining e’tibori. Moskva, 1987 yil.*
3. *Ignashova E. V. «Boshlang’ich sinf o‘quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish», maqola*
4. *Kravtsova E. E. «Boshlang’ich maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari», 1–8-ma’ruzalar*
5. *Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall.*
6. *Vygotskiy, L.S. (1978). Mind in Society. Cambridge, MA: Harvard University Press.*
7. *Eysenck, H.J. (1990). The Biological Basis of Personality. Springfield: Charles C Thomas.*